

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI BOTIR
ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”
O'zDK huzuridagi Botir Zokirov
nomidagi Milliy estrada san'ati
instituti rektori
A.Mansurov

2024 yil “30” avgust

Ro'yxatga olindi: № MD 70211301- 1.02

MUTAXASSISLIK FANLARNI O'QITISH METODIKASI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar

Ta'lrim sohasi: 210 000 – San'at

Ta'lrim yo'nalishi: 70211301- Dirijyorlik (estrada orkestri dirijyorligi)

MUTAXASSISLIK FANLARNI O'QITISH METODIKASI FANINING O'QUV DASTURI

Fan/modul kodi MFM1103	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	ECTS-Kreditlar 3		
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek, rus		Haftadagi dars soatlari 2		
	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
1.	Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi	30	60	90	
2.	I. Fanning mazmuni Dirijyorlik san'ati davrlar o'tgani, orkestrning turlari ko'paygani sari takomillashib, ijro uslublarida o'zgarishlarga yuz tutmoqda va ta'lim sohasida ham orkestr ijrosiga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Dirijyorlik kasbi boshqa kasblarga nisbatan yosh, kelib chiqishi asosan XIX asrning II yarmiga borib taqaladi. Kompozitorlik texnikasini tez sur'atda murakkablashishi, ayniqsa Italiya, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida katta guruh ijrochilarini talab qiladigan opera, simfoniya, oratoriya, kantata kabi yangi janrlarni turli jamiyatlarning madaniy hayotida yuzaga kelishi mustaqil dirijyorlik kasbini paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Shu bois, dirijyorlik kasbi ham – mustaqil san'at yo'nalishi sifatida rivojlandi va katta yo'lni bosib o'tdi. Bugungi kunda ushbu kasbning hurmatli namoyondalari ko'pchilikni tashkil etadi. Orkestr turlari ko'paygan sari, unga dirijyorlik qilish san'ati ham o'ziga xos talablarni qo'ya boshladи. Jumladan: opera-simfonik, damli cholg'ular, xalq cholg'ulari yoki kamer orkestri kabi jamoalarga dirijyorlik qilish, ushbu orkestrlarning spitsifikasini chuqr his etish, repertuar tanlash, jamoa bilan ishlash va dirijyorlik harakatlarini yo'lga qo'yish shular jumlasidandir. Estrada orkestri dirijyorligi san'ati ham yuqorida sanab o'tilgan dirijyorlik kasbining yana bir yangi yo'nalishlaridan biridir. Estrada orkestri dirijyorligini o'qitish, ushbu dirijyorlik maktabini zamon talablaridan kelib chiqib yanada rivojlantirish va o'zbek dirijyorlik san'atini dunyo miqyosiga olib chiqish bugungi kunda mustaqil davlatimizning obro'siga obro' qo'shishini hisobga olgan holda, bu fanning dolzarbligini aniqlab beradi. "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" fani ixtisoslik fanlari blokiga kiritilgan kurs hisoblanadi.				

II. ASOSIY QISM

Nazariy va amaliy mavzular (modullar)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular (modullar) kiradi:

1- modul. Tarix, orkestr turlari, partitura (1-4 soatlar)

Dirijyorlik san'atining xususiyati, dirijyorlik tarixi, ushbu san'atning (shuningdek estrada san'ati) O'zbekistonga kirib kelishi va rivojlanishi, partitura bilan tanishuv va uning ustida ishlash, orkestr turlari (shuningdek estrada orkestrlari) kabi mavzular bilan talabalarni tanishtirib, dirijyor, orkestr, tarix, battuta, korifey, xeyronomiya, arsis, tesis, nevma, general bas, jaz, partitura va undagi atamalar kabi bilimlar o'rganiladi.

2- Modul. Dirijyorlik holati (5 - 8 soatlar)

Dirijyorlikda ifoda jihatlari, dirijyorning gavda holatlari va qo'll qismlari, dirijyorlik harakatlarida qo'llarning oraliq masofasi, holat, qo'llar, tana (gavda), oyoqlar, bosh, mimika (yuz ifodasi), dirijyorlik texnikasi, obraz, estetika (go'zallik), qo'l qismlari, bilak, tirsak, yelka, balandlik, kenglik, chuqurlik, dirijyor tayoqchasi.

Dirijyorlik holatining ahamiyati, dirijyorlikda oyoqlar va qo'llar holati, qo'l qismlari va ularning vazifalari, bosh holati kabi mavzularni o'z ichiga olib - holat, qo'llar, tana (gavda), oyoqlar, bosh, mimika (yuz ifodasi), dirijyorlik texnikasi, obraz, estetika (go'zallik), qo'l qismlari, bilak, tirsak, yelka, balandlik, kenglik, chuqurlik kabi atamalarni amaliy hamda nazariy va amaliy tarzda o'rganiladi.

Oraliq nazorat

Dirijyorlik san'atining xususiyati, dirijyorlik tarixi, ushbu san'atning (shuningdek estrada san'ati) O'zbekistonga kirib kelishi va rivojlanishi, partitura bilan tanishuv va uning ustida ishlash, orkestr turlari (shuningdek estrada orkestrlari) kabi mavzular bilan talabalarni tanishtirib, dirijyor, orkestr, tarix, battuta, korifey, xeyronomiya, arsis, tesis, nevma, general bas, jaz, partitura va undagi atamalar, dirijyorlikda ifoda jihatlari, dirijyorning gavda holatlari va qo'l qismlari, dirijyorlik harakatlarida qo'llarning oraliq masofasi, holat, qo'llar, tana (gavda), oyoqlar, bosh, mimika (yuz ifodasi), dirijyorlik texnikasi, obraz, estetika (go'zallik), qo'l qismlari, bilak, tirsak, yelka, balandlik, kenglik, chuqurlik, dirijyor tayoqchasi borasidagi bilimlar tekshiriladi. Unda talabaning fikrashi, mavzularning uqqanligi, fikrini yetkazib berish san'ati, ma'lumotlarni lo'nda, aniq va ilmiy yetkazib berishiga e'tibor beriladi.

Savollar fanning Sillabusida berilgan.

3- modul. Dirijyorlik harakatlari (9-15 soatlar)

Jamoa ijrosini ta'minlash harakatlari, dirijyorlik harakatlari va ularning vazifalari, badiiy obrazli ijroga erishish harakatlari, muloqot (orkestr bilan), ansambl, auftakt, intilish, nuqta, nuqtaning aksi, badiiy ijro, manual texnika, tayoqcha, oddiy va murakkab o'lchovlar hamda ularning chizmalari kabi atamalarni amaliy hamda nazariy tarzda o'rghaniladi.

Yakuniy nazorat

Jamoa ijrosini ta'minlash harakatlari, dirijyorlik harakatlari va ularning vazifalari, badiiy obrazli ijroga erishish harakatlari, muloqot (orkestr bilan), ansambl, auftakt, intilish, nuqta, nuqtaning aksi, badiiy ijro, manual texnika, tayoqcha, oddiy va murakkab o'lchovlar hamda ularning chizmalari kabi atamalarni amaliy hamda nazariy tarzda bilimlar tekshiriladi. Unda talabaning fikrashi, mavzularning uqqanligi, fikrini yetkazib berish san'ati, ma'lumotlarni lo'nda, aniq va ilmiy yetkazib berishiga e'tibor beriladi.

Savollar fanning Sillabusida berilgan.

4- modul. Dirijyorlikda qo'llar mutanosibligi (16-20 soatlar)

Ijro jarayonidagi qo'llar texnologiyasi, qo'llar vazifasi, qo'llarning o'zar munosabati, dirijyorlik, texnologiya, texnika, applikatura, ifodalilik, badiiy ijro, sinxron (parallel) harakat kabi atamalarni amaliy hamda nazariy tarzda o'rghaniladi.

5- modul. Dirijyorlikda o'lchov harakatlari va ularning chizmlari (21-26 soatlar)

Oddiy, murakkab, aralash o'lchovlar, dirijyorlik chizmlari, metr, ritm, musiqiy sur'at (temp), texnik ko'rsatmalar amaliy hamda nazariy tarzda chuqur o'rghaniladi.

Oraliq nazorat

Ijro jarayonidagi qo'llar texnologiyasi, qo'llar vazifasi, qo'llarning o'zar munosabati, dirijyorlik, texnologiya, texnika, applikatura, ifodalilik, badiiy ijro, sinxron (parallel) harakat, Oddiy, murakkab, aralash o'lchovlar, dirijyorlik chizmlari, metr, ritm, musiqiy sur'at (temp), texnik ko'rsatmalar borasidagi bilimlar tekshiriladi. Unda talabaning fikrashi, mavzularning uqqanligi, fikrini yetkazib berish san'ati, ma'lumotlarni lo'nda, aniq va ilmiy yetkazib berishiga e'tibor beriladi.

Savollar fanning Sillabusida berilgan.

6- modul. Badiiy ijrochilikni amalga oshirishda dirijyorlik harakatlari va ularning turli ko'rinishdagi talqinlari. (27-30 soatlar)

Ovozni so'ndirish, fermata va uning turlarai, takt oldi, pauza, shtrix, sinkopa, temp (musiqiy surat), metronom, dinamika, agogika harakatlari amaliy hamda nazariy tarzda chuqr o'rganiladi.

Yakuniy nazorat

Ovozni so'ndirish, fermata va uning turlarai, takt oldi, pauza, shtrix, sinkopa, temp (musiqiy surat), metronom, dinamika, agogika harakatlari kabi atamalarni amaliy hamda nazariy tarzda bilimlar tekshiriladi. Unda talabaning fikrashi, mavzularning uqqanligi, fikrini yetkazib berish san'ati, ma'lumotlarni lo'nda, aniq va ilmiy yetkazib berishiga e'tibor beriladi.

Savollar fanning Sillabusida berilgan.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

- Dirijyorlik san'atining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi.
- Estrada san'atining dunyo miyosida vujudga kelishi. O'zbekistonda estrada ijrochiligining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
- Orkestr va uning turlari.
- Estrada orkestri va uning turlari
- Partitura ustida ishslash.
- Dirijyor holati
- Dirijyorlikda ifoda jihatlarini qo'llash asoslari
- Oyoqlar holati
- Gavda holati
- Bosh holati, nigoh va mimika
- Qo'l qismlari
- Bilak harakatlari
- Bilak va tirsak harakatlari
- Qo'llarning to'liq harakati (yelka harakati)
- Dirijyorlik harakatlarda qo'llarning oraliq masofasi
- Dirijyor tayoqchasi
- Jamoadagi ansambl ijrosini ta'minlash harakatlari
- Auftakt
- Intilish

- Nuqta
- Aks (nuqtaning aksi)
- Badiiy ijroga (obraz) erishish harakatlari
- Ijro jarayonidagi texnologiyalar
- Qo‘llar vazifasi
- Qo‘llarning o‘zaro munosabati
- Ikki hissali chizma
- Uch hissali chizma
- To‘rt hissali chizma
- Besh hissali chizma va uning turlari
- Olti hissali chizma va uning turlari
- Dirijyorlik uchun takt chizmalarini tanlash
- Ovozni so‘ndirish va uning turlari
- Fermata va unin turlari
- Takt oldi harakati va uning turlari
- Pauza va uning turlari
- Shtrix va uning turlari
- Sinkopa va uning turlari
- Musiqiy surat (temp) va uning turlari
- Metronom va uning ahamiyati
- Dinamika va uning turlari

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlар

- O‘zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI va O‘zDK kutubonasidagi adabiyotlardan foydalanish, o‘qib-o‘rganish, dirijorlik kasbi, orkestr turlari (ayniqsada estrada orkestri), ularning tarkibi, dirijyorlar (shuningdek O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan) va partitura bo‘yicha nazariy bilimlarni oshirish (Sh.Umarov “Dirijyorlik”, M.Akmaljonova “Dirijyorlik” darsliklari va A.Nazaryan, G.Israilov “Orkestr sinfi” o‘quv qo‘llanmasidan foydalanish).
- Dirijyorlik holatlarini (oyoq, qo‘l, bosh gavda), qo‘l qismlari (bilak, tirsak, yelka), dastlabki holat (o‘rta, past, yuqori) oraliq masofa (kenglik, balandlik) harakatlarni o‘zlashtirish, berilgan mashqlardan foydalanish, oyna bilan ishlash.
- Muloqot (badiiy kitoblar o‘qish orqali so‘z boyligini orttirish, jo‘rnavorolar bilan muloqot qilish, tushuntira bilish), ansambl (orquestr

MUTAXASSISLIK FANLARNI O'QITISH METODIKASI FANINING O'QUV DASTURI

- | | |
|--|---|
| | <p>yoki uning guruhlari bilan ishslash, jo'rnavozlar bilan), dirijorlikning - austakt, intilish, nuqta, nuqtaning aksi kabi asosiy harakatlarini vazifasini tushunish va o'zlashtirish, badiiy ijro (mimika, nigoh, qo'llardagi ijro harakatlari) larni tushunib olish va ijroga tadbiq etish, berilgan mashqlardan foydalanish, oyna bilan ishslash.</p> <ul style="list-style-type: none"> - O'ng va chap qo'l harakatlarining vazifalarini bilish, sinxron (parallel) harakatni ishlatmaslik, sozandani ijro uchun ilhomlantirish, ovozni so'ndirish turlari kabi harakatlar bilan tanishish va ularni ijro amaliyotida qo'llash, berilgan mashqlardan foydalanish, oyna bilan ishslash. - Oddiy, murakkab va aralash o'Ichovlar va ularni chizma harakatlari bilan tanishish, kuchli va kuchsiz hissalarni aniqlash, metr, ritm, musiqiy sur'at (temp) kabi atamalarni tushunib olish va amalda qo'llash, berilgan mashqlardan foydalanish, oyna bilan ishslash. - Ovozni so'ndirish, fermata, takt oldi, pauza, shtrix, sinkopa, temp (musiqiy surat), dinamika kabi ijrolar hamda ularning turlari bilan tanishish va amalda qo'llash, metronom bilan tanishish va foydalanish yo'llari, mashqlardan foydalanish, oyna bilan ishslash. |
|--|---|

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar).

Mazkur fanni o'zlashtirish natijasida talaba Davlat ta'lif standartlarida belgilangan bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi nazarda tutiladi, xususan:

- Dirijyor va dirijyorlik kasbi, shunindek uning kelib chiqishi, orkestr turlari va ularning tarixi;
- Dirijorlik holatini o'zlashtirish;
- Dirijyorlikning bazaviy harakatlari o'zlashtirish va amalda qo'llash;
- Partitura o'qish;
- O'rganayotgan asarini fortepiyano da chala olish (kamida asosiy va yordamchi ohanglarni);
- O'Ichov turlari va ularning chizmalari bilan tanishush va amalda qo'llash;
 - Dirijorlik tayoqchasini ishlata olish;
 - O'rganayotgan asari borasida kollokviumga tayyor bo'lish;
 - Orkestr sinfi fanida dirijyorning qo'l harakatlarini uqib olish, yengil tushunish;
 - Jahon va O'zbekiston kompozitorlarining hayoti va ijodi, ularning turli

	<p>yo‘nalish va uslublarda yozilgan asarlari bilan yaqindan tanishish;</p> <ul style="list-style-type: none"> – Musiqiy sezgini oshirish; – Musiqaning shakl tahlilini olib beruvchi bazaviy nazariy asoslar haqida tasavvurga ega bo‘lishi; – Asarda jumla; – Agogikaning yengil turlari; – Nutqni o‘stirish va muomala san’atini o‘zlashtirish; – Estrada musiqa ijrochilgi uslublari bilan tanishib borish; – Repertuariga kiritilgan asarlarni mukammal o‘zlashtirish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.
4.	<p>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> – Audio va video yozuvlardan foydalanish; – Internet resurslaridan foydalanish; – Partitura o‘qish mahoratini oshirish; – Manual texnikani o‘stirish uchun mashqlar bajarish; – “Aqliy hujum”, “Klaster” metodlari; – Talabada mantiqiy fikrlashni rivojlantirish; – Texnik mashqlar ustida ishlash; – Dars jarayonida muloqotga kirishish, ijodiy muhit yaratish.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy, amaliy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, dirijyorlik harakatlarini aniq va o‘z vaqtida ishlata olish, kollokviumga puxta tayyorgarlik ko‘rish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, mustaqil fikrlash va mushohada yuritish, oraliq nazorat jarayonida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha dasturni ijro etib ko‘rsatish</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar: O‘zDK kutubxonasi</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Z. Haqnazarov Dirijyorlik haqida. O‘quv-qo‘llanma. T., 2012 y. 2. F. Abdurahimova Orkestr sinfi. O‘quv-qo‘llanma. T., 2012 y. 3. M.V.Akmaljonova “O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri dirijyorligi san’ati”. Darslik. T.: “Fan ziyosi”nashriyoti, 2022 y. <p style="text-align: center;">O‘zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI kutubxonasi</p> <ol style="list-style-type: none"> 4. A.Nazaryan, G.Israilov “Cholg‘u ijrochiligi” (Estrada cholg‘ulari). T., 2017 y.

MUTAXASSISLIK FANLARNI O'QITISH METODIKASI FANINING O'QUV DASTURI

- | | |
|--|---|
| | <p>5. Sh. Umarov. Dirijyorlik (xalq cholg'ulari), darslik, T.: "Tamaddun" 2023 y.</p> <p>6. Sh. Umarov. Dirijyorlik (estrada orkestri), darslik, T.: "O'zbekiston davlat konservatoriysi" 2024 y.</p> |
|--|---|

Qo'shimcha adabiyotlar:

- | | |
|--|--|
| | <p>7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016;</p> <p>8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016;</p> <p>9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017;</p> <p>10. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi (elektron versiyasi);</p> <p>11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20-apreldagi UP-2909 sonli Qarori;</p> <p>12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20-iyuldagи UP-3151 sonli Qarori;</p> <p>13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 08-avgustdagи UP-3178 sonli Qarori;</p> <p>14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17-noyabrdagi UP-3391 sonli Qarori;</p> <p>15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 16-oktabrdagi PQ-5261 sonli Qarori;</p> |
|--|--|

Axborot manbaalari:

- | | |
|--|---|
| | <ol style="list-style-type: none">1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali;2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjalari ma'lumotlari milliy bazasi;3. http://www.youtube.com4. www.musiqqa.uz5. www.tarakanov.ru6. www.musicaneo.com |
|--|---|

MUTAXASSISLIK FANLARNI O'QITISH METODIKASI FANINING O'QUV DASTURI

	<p>7. www.notarhiv.ru 8. www.primanota.ru 9. www.partita.ru 10.www.commus.uz 11.www.belcanto.ru</p>
7.	Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisllari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashtiruvchi Kengashi 202 <u>4</u> yil <u>30</u> avgustdagi <u>-</u> sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas'ul: Sh.A.Umarov – O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI dotsenti
9.	Taqrizchilar: A.Ikramov – O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston estrada-simfonik orkestri bosh dirijori M.Bafoyev - O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, O'zDK professori, kompozitor, dirijyor